

Ulug‘bek Hamdam “Bir piyola suv” hikoyasi struktur poetikasi

Mutallibxo‘jayeva Salomatxon Mutalibxon qizi
Farg‘ona davlat uiversiteti Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va jahon adabiyotshunosligida strukturalizm masalasi, struktural tahlilning xususiyatlariga doir mulohazalar o‘rin olgan. Shuningdek, yozuvchi U.Hamdamning “Bir piyola suv” hikoyasidagi ramzlar va ularning ma’nolari, hikoyaning struktur tahlili, ijodkor mahorati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Strukturalizm, poetika, sema, metod, ramz, hikoya, modern, tasavvuf

Abstract. This article discusses the issue of structuralism in Uzbek and world literary studies, the features of structural analysis. Also, the symbols and their meanings in the story "Bir Pyola Suv" by the writer U. Hamdam, the structural analysis of the story, and the artist's skills are discussed.

Keywords: Structuralism, poetics, sema, method, symbol, story, modern, mysticism

Strukturalizm XX asrda adabiyotshunoslikda muhim metodologik yondashuv sifatida shakllandi. U matnni o‘z ichidagi tuzilma va elementlar o‘rtasidagi munosabatlar orqali tahlil qilishga urg‘u beradi. Jahon adabiyotshunosligida bu usul Fransiyada rivojlanib, Roland Bart, Klod Levi-Stross kabi olimlar tomonidan keng qo‘llanilgan. Ular matnni alohida bir tizim sifatida ko‘rib, uning ichki strukturasi o‘rganishga intildilar.

O‘zbek adabiyotshunosligida strukturalizmga qiziqish XXI asr boshlarida paydo bo‘ldi. Bu davrda badiiy matnni struktur-semiotik tahlil qilishga oid dastlabki ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Masalan, M. Farmonovanning "Badiiy matnning o‘ziga xosligi (strukturalistik talqinda)"¹ nomli maqolasida o‘zbek

¹ <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-matnning-o-ziga-xosligi-strukturalistik-talqinda>



adabiyotshunosligida strukturalizm va struktural tahlil borasidagi ilk ilmiy izlanishlar 2000-yillar boshlariga to‘g‘ri kelishi ta’kidlanadi.

Shu o‘rinda so‘nggi yillarda o‘zbek adabiyotshunosligida va ilmiy, nazariy tadqiqotlarda “struktura”, “struktural tahlil”, kabi badiiy asarni o‘zgacha tadqiq manbaya sifatida baholovchi tushunchalar ham sezilarli darajada oshgaligini inobatga olish lozim. Bu tadqiqotlarda badiiy asarga yangicha yondashish yo‘llari, qadimgi Sharq ilmida matn va badiiy matnga munosabat xillari, strukturalizm yo‘nalishi va struktural tahlil usuli kabi masalalar ko‘rib chiqilgan.

Umuman olganda strukturalizm jahon adabiyotshunosligida muhim o‘rin tutgan bo‘lib, o‘zbek adabiyotshunosligida ham bu metod o‘rganilishda davom etmoqda.

Ulug‘bek Hamdam ijodiga azar tashlar ekanmiz, yozuvchi adabi-estetik qarashlarining muayyan yo‘nalishini adabiyot haqidagi, badiiy tafakkurdagi yangilanish jarayonlari, adabiyotdagi yo‘nalish va oqimlar, umumbashariy g‘oyalar va milliy qadriyatlar haqidagi qarashlar tashkil etishining guvohi bo‘lamiz. Ulug‘bek Hamdam badiiy tafakkurdagi yangilanishlar jarayonini mavjud ijtimoiy jarayondagi dunyoqarashlar majmui, ijtimoiy va ma’naviy hayotdagi o‘zgarishlar bilan bog‘lab talqin qiladi. Ulug‘bek Hamdam ijodiga boshqalardan farq qiluvchi shakl izlash, ifodada takrorlamaslikka intilish, ramz va poetik topilmalarga (masalan, tush, xayol, yo‘l, tabiat unsurlari: yomg‘ir, daraxt, tosh, suv vahok.) ongli ravishda intilish xos. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, yozuvchi ilgari surayotgan adabiy-estetik qarashlar, asar haqidagi bilimlari uning o‘zi yaratgan badiiy asarida u yoki bu tarzda tatbiq etilganini kuzatish mumkin. Bu jihatlarni biz yozuvchining “Bir piyola suv” hikoyasi misolida ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

“Bir piyola suv” hikoyasida hayot va o‘lim, tiriklikning mohiyati, odamning olamdagi vazifasi kabi falsafiy g‘oyalar tasavvufiy (timsollar ruhida) zuhr etgan. Hikoya noan’anaviy usulda yozilgan². Asar voqeasi qahramon tilidan bayon etiladi. Qahramonga yuklatilgan vazifa va uni amalga oshirishdagi sa’y harakatlar, o‘y-kechinma, afsus-nadomat, ruhiy jarayonlar muallif ishtirokisiz - epifaniya asosida

² Murodova, R. I. (2022). NON-STANDARD TESTS IN MOTHER TONGUE EDUCATION AND IMPROVEMENT OF METHODOLOGY OF THEIR USE. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ), 10(5), 21-36.



ifodalangan. Adib hikoya qahramoniga nom ham bermaydi. Boisi, hikoyaning mohiyatida umuman insonga xos holatni ifodalashni niyat qilgan.

Yozuvchining uslubiy o‘ziga xosligi ushbu hikoyada yorqin namoyon bo‘lgan. Bunda mumtoz va modern adabiyotga xos ifoda yo‘sini uyg‘unlashtirilgan. Asarda ilgari surilgan g‘oya - insoniyatning azaliy va abadiy dushmani hisoblangan nafs balosidir.

Lazzati nafs tarki samari ofiyat berur,

Lekul shajarni ekkali farzonaliz kerak”. deb yozgan edi Jaloliddin Rumiy bir g‘azalida. Ulug‘bek Hamdam shu g‘oyani nasrda berishga urinadi. Darhaqiqat, nafs lazzatbaxshday tuyulsa-da, uning natijasi ofat keltiradi, badnafslilikni yengish uchun pok qalbli, fozil- farzona bo‘lmoq kerak. Vujudiga bir lahzalik rohat bag‘ishlab, butun umrini badnafslilik botqog‘idan chiqishga sarflagan inson tahlilimizdagi hikoyaning bosh qahramoni.

Yozuvchi asar mohiyatini tasavvufiy timsollar qatiga berkitgan. Hikoyaning nomida ham katta ma’no jamlangan. “Bir piyola suv”. Suvning tasavvufiy istilohi, umuman, badiiy ramz sifatidagi ma’nosi - tiriklik. Suvning bir piyolaligi esa insonga bir bora berilgan hayot, umr, tiriklik demakdir. Biroq nega suv piyolada? Hajm jihatdan kichik idishda? Boisi, piyola - badnafslilikning zavoli, qanoat timsoli.

Odamning olamga kelishidan maqsadi nima? Odamning olamdagi muqaddas vazifasi, burchi nimalardan iborat kabi savollar hikoya tub mohiyatida aks etgan. Hikoya qahramoniga yuklatilgan vazifa shom tushgunga qadar nimadir ortilgan ikkita ot-aravani manzilga yo‘lda chalg‘imasdan eltish. Inson olamning gultoji. Shunday ekan uning hayotdagi vazifasi ezgulik, munavvar hayot yo‘lini bosib o‘tish. Nega bu vazifani qahramon ot aravada shom tushguniga qadar bajarishi lozim? Ramziy ma’noda ot - hayot, ot arava - tobut timsoli bo‘lsa, tong va shom - umrning ibtidosi va intihosidir. Demak, inson o‘z umri - tong va shom oralig‘ida, poyoniga qadar o‘zining muqaddas burchi, vazifasini badnafslikka berilmay ado etishi lozim. Bu foni olamdagi sinovdan munosib o‘tish insoniyatning muqaddas burchidir. E’tibor qaratilsa yuklatilgan vazifaga yo‘ldosh qilib aynan aqlli jonvorlar- otlar berilga, va bu ikki jozot “huddi vazifadan boxabardek” bir maromda yo‘rtib borishmoqda.

Yozuvchi inson ruhiyatidagi jo‘shqinlik, ruhiy tetiklik, charchoq va hafsalasizlikni qahramonning xirgoyisi orqali ifodalagan. “Avvaliga ovozimni



baland qo‘yib qo‘shiq aytaman. Kuch-quvvatni tejash zarurligini payqabmi, beixtiyor xirgoyiga o‘taman, bilgan-bilmagan qo‘shiqlarimdan zamzama qilaman. Keyin g‘ing‘illashga oro berib atrofga alanglayman”. Tom ma‘noda “ovozi balad qo‘yib qo‘shiq aytish” pallasini insonning yoshlik davriga qiyos etish mumkin. Boisi yoshlikda kishi hayotining “baland pardalarida” yashaydi – o‘ynab kuladi, hayot tashvishlariga e‘tibor qaratmaydi, ko‘ngli tusagan ishni bajarishga o‘zini haqli deb biladi. “Xirgoyiga o‘tish” chog‘i esa mohiyatan o‘rta yosh davriga mos. Chunki bu davrda inson endi “kuch-quvvati tejash zarurligini” anglay boshlaydi. Endi umrning qolgan qismini jiddiyroq masalalarga e‘tibor qaratib yashash kerakligini tushunadi. Va nihoyat “g‘ing‘illashga oro berib, atrofga alanglaydi”. Butun umrining sarhisobini o‘ylaydi, o‘zidan keyinda qoldirib ketayotgan olamiga nazar tashlaydi, atrofga alaglab dunyoga to‘ymaydi.

Yozuvchining poetik mahorati shundaki, so‘zni o‘z semasidan kelib chiqib o‘rinli qo‘llaydi. Uning badiiy ta‘sir kuchini oshirishga erishadi. “Bir mahal ichimga o‘rmlab kirgan chanqoqni his qilaman”. Odatda inson chanqoqni to‘satdan his qilmaydi, balki, muayyan issiq harorat va boshqa omillar ta‘siri bilan tashnalik sekin-asta inson ichiga kirib boradi. Adib chanqoqni jonlantirish san‘ati asosida inson vujudiga “o‘rmlatib” kiritadi. Agar hikonavis qahramonning bu holatini “chanqadam”, yoki “chanqaganimni his etdim”, deya tasvirlaganda badiiy ifoda bu qadar ta‘sirchan, zalvorli chiqmas edi. Endi hikoyaning quyidagi qismiga e‘tibor qaratsak: “Ichim to‘la hayot, kuchim tanamga sig‘may tevarakni titratib hayqiraman – “Uuu–luuu-uuug‘!..” Sal o‘tmay atrofdan aks-sado qaytadi: “G‘uuu-luuu-uuu-uuu!!!” Ilkis cho‘chib tushaman, ichim muzlab ketadi. Saratonning issig‘ida peshonamdan sovuqdan-sovuq ter quyiladi. Najot istab ko‘zlarimni yana atrofga olaman. Boshqa hayqirgim kelmaydi...” Bu o‘rinda “Ulug‘” va “G‘ulu” so‘zlari o‘zaro antitza hosil qilgan. Bu ikki so‘zing qarama-qarshi berilishi inson o‘zini har qancha ulug‘ deb hisoblamasin, qanchalik kibr-u havoga berilmasin buning bari “g‘ulu” – mubolag‘a ekanini anglatadi. Mubolag‘a A.Hojiahmedovning “Mumtoz badiiyat malohati” kitobida g‘ulu shunday ta‘riflanadi: “...Mubolag‘aning uchunchi darajasi g‘uluvv deb ataladi. Aql ham bovar qilmaydigan, hayotda ham yuz berishi



mumkin bo‘lmaydigan tarzda tasvirlash shunday san‘at hisoblanadi...”³ Demak, o‘zni ulug‘man deb hisoblash aqlli kishilar uchun juda aql bovar qilmas hodisa.

Inson o‘zida bor narsani boshqa yoqdan izlashi, o‘zligini anglashga astoydil intilmagani bois umri sarson-sargardonlikda o‘tishiga mahkumligi hikoya qahramoni timsolida o‘z ifodasini topgan. Axir bejizga A.Navoiy “Lison ut-tayr” asarida:

“O‘z vujudingga tafakkur aylagil

Har ne istarsen o‘zungdin istagil” deya oliy haqiqatni bayon etmagan. Agar inson ezgu *maqsadlari* sari intilsa, unga butun koinot yordam beradi. “Axir butun borliq: yerda yo‘l, o‘rkach-o‘rkach qum tepaliklar, ko‘kda esa bulut va qushlar... hamma-hammasi menga ko‘makdosh ekan, hech shubha yo‘qki, uhdamdagi vazifani bekamu ko‘st bajargumdir”.

Hikoya davomida vujudiga o‘rmlab kirgan tashnalik cho‘l jazirasida yo‘l bosib o‘tayotgan insonni adoqsiz azobga soladi. Qahramonning bu holatini muallif o‘xshatish san‘atidan mohirona foydalanib izohlaydi. “Biroq chanqoq ham borgan sari zabtiga olar, ichimga anavi o‘rkach-o‘rkach qaynoq qumliklar ko‘chib o‘tayotganga o‘xshardi” . Ushbu tashbeh orqali hikoyanavis qahramonning ham jismoniy, ham ruhiy qiynog‘ini ta’sirchan, ishonarli ifodalashga erishgan. Bu o‘rinda adib tabiat qonuniga muvofiq ish ko‘radi. Ya’ni mas’uliyatli vazifani chalg‘imasdan ado etish va uning ziddi tarzda chanqoq tufayli nafs iskanjasiga tushib, vazifani bajara olmaslik xavfining ortib borish azobi. Biroq bu “nafsi ammora” emas, hayotiy zarurat edi. Jazirama issiq, sahroda chanqamaslik imkonsiz. Demak, insonning tirikligi, hayot kechirishi uchun nafs zarurat (ehtiyoj). Mas’uliyatli vazifani bajarishda ular birlashadi, karvonsaroy chashmasidan ingichka zanjir bog‘langan munaqqosh mis piyolada bir bora suv ichib, chanqoq azobiga barham byerib, yo‘l yurishga kuch yig‘adi. Hikoyanavis zanjir bog‘langan munaqqash mis piyola orqali insonga lazzat baxsh etgan suv (nafs)ning to‘lovi misdek og‘ir, zanjir bog‘langan piyoladek butun umri kishanda, behuda o‘tib ketishiga ishora qiladi.⁴

“Odim otarkanman, negadir vujudimda lohaslik, charchoq sezardim. Qadamlarim ham negadir bu yerga ilk kirganimdagidek dadil emas, allaqanday

³ Hojjahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent :Sharq, 1999 – B. 11

⁴ Atajanov, G. (2020). ASLIYATNI QAYTA YARATISH MUAMMOSI. UzACADEMIA, 1(1), 72-75.



og‘ir, kuchsiz va hafsalasiz... Lekin nega? Yo shunchalar uzoq vaqt qolib ketdimmi bu yerda: toliqdimmi, ezildimmi? ... Kirganimda yoshlik shijoati ufurib, tiyiqsiz kuch-quvvatga to‘lgan tanim tirishib, eti ustaxonaga yopishib qolgan, suyaklar teridan bo‘rtib chiqib turar, juda-juda mo‘rt va quvvatsiz tuyulardi”. Hikoya qahramoni o‘zligida zuhur etgan narsani o‘zgayoqdan qidiradi. Natijada butun hayotini behuda o‘tkazib, suvdek musaffo qalbi darz ketadi. “E voh shu choqqacha boshimga tushgan ajabtovur voqealar bir yonu bunisi bir yon bo‘ldi: ne ko‘z bilan ko‘rayki, aravaning ichida suv to‘la ko‘zalar qator tizilishib turar, ulardan bittasi yiqilib singanu, suvi quyiga - asriy tashna qumliklarga chak-chak tomardi”.

Yuqoridagi qisqa talqinlardan ham ko‘rinib turibdiki, yozuvchi ushbu hikoyada estetik pozitsiyasida muhim o‘rin egallagan sharqona falsafiy qarashlarni, tiriklik ma‘nosi, hayot mazmun-mohiyati kabi tushunchalarni ramziy-majoziy obrazlarda bera olgan. O‘zi suv olib ketayotgan yo‘lovchining suv izlashi motivi Alisher Navoiyning *Bahrda xiromon yuz mingta mohiy*

Xirad mohiyatin qilar kamohiy, degan baytlariga monand. Chunki hayotda e‘tiqodini topa olmagan odam o‘zi tortib borayotgan yukning nima ekanidan g‘ofil qoladi. Umr so‘nggidagi pushaymonlik unga yordam bera olmaydi.

Ulug‘bek Hamdam ilmiy tadqiqotlari, tarjimalari, lirik va nasriy asarlari bugungi adabiy jamoatchilikning e‘tiborini tortib kelayotgani sir emas. Uning asarlari ko‘plab bahs-munozaralarga, turfa xil talqinlarga sabab bo‘layotir. Birgina noan‘anaviy uslubda yozilgan “Yolg‘izlik” qissasi O.Sharafiddinov, M. Qo‘shjonov, U. Normatov, N. Vladimirovna, B.Karimov, Q.Yo‘ldoshev, R.Rahmatov, M.Qo‘chqorova kabi adabiyotshunos tomonidan turlicha tahlil etilgani fikrimiz dalilidir. Bunga esa uning asarlaridagi yangilik, ko‘p ma‘nolilik, inson mohiyatini ochishga bo‘lgan yangicha intilish sabab, deb o‘ylaymiz.

Albatta, badiiy asarni tushunish va tahlil qilishda tanqidchining dunyoqarashi, intellektual salohiyati, saviyasi ham muhim sanaladi. Bu haqda B.Karimov “Badiiy asarni har kim o‘zicha, o‘z dunyoqarashiga mos bilimi va hayotiy tajribasi darajasida tushunadi, his etadi. Asarda yo‘q narsa izlanmaydi, bor narsa berkitilmaydi. Lozim o‘rinda butun diqqat-e‘tibor aniq bir muammoga qaratiladi”, deb yozadi.

Neofreydistlarning peshqadamlaridan E.Fromm inson hayoti mohiyatiga to‘xtalib, shunday fikrni ilgari suradi: “Insoniyat hayotining mazmun mohiyatini

ziddiyat tashkil etib, mana shu ziddiyat muqobil yo‘l topishga odamzotni asrlar mobaynida majbur etib kelayotir”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Atajanov, G. (2020). Asliyatni qayta yaratish muammosi. Uzacademia, 1(1), 72-75.
2. Hamdam U. To‘lin oy qissasi (Hikoyalar to‘plami) . – Toshkent:Sharq , 2017
3. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent :Sharq, 1999 – B. 11
4. Murodova, R. I. (2022). NON-STANDARD TESTS IN MOTHER TONGUE EDUCATION AND IMPROVEMENT OF METHODOLOGY OF THEIR USE. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ), 10(5), P.21-36.
5. Saidova R. Badiiy mati struktur-semiotik tahlil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari//Education and innovative research – 2023 No.12 – P.84-85

Research Science and Innovation House